

O'ZBEKISTONDA MATEMATIKA FANINING TUTGAN O'RNI

Sonoqulova Gulorom Sultonovna

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 10-umumta'lim
maktab matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim sifatini oshirish, matematika va tabiiy fanlarni o'quvchilar chuqur o'zlashtirishi asosiy vazifaga aylandi. O'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun avvalo ularning bilimini oshirish lozim. O'quvchilarning bilimini oshirish uchun matematika darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashiga katta e'tibor qaratish lozim.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifatini oshirish, matematika, qiziqish va bilimni oshirish, mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash, Vatan taraqqiyoti.*

Mustaqil Vatanimizning birinchi prezidenti I.A.karimov aytganlaridek, “farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart”. Yurtimizning kelajagi albatta yoshlarimiz qo'lida, yoshlarimiz qanchalik bilimli, zukko, tarbiyasi bo'lsa, yurtimiz kelajagi porloq bo'lishi tayin. Shuning uchun ham, bugungi kunda Respublikamizda o'quvchi-yoshlarimizning chuqur bilim olishi, har taraflama salohiyatli bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'quvchi-yoshlarimizning jahon talablari darajasida bilim olishi uchun ta'lim sohasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy talablar asosida jihozlangan, keng va yorug' sinfxonalarga, barcha zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo'lgan maktablarning qurib bitkazilgani, ayrimlari qayta rekonstruksiya qilingani yuqoridagi fikrimning dalilidir.

Ta'lim-davlat kelajagining ko'zgusi deb bejiz aytilmagan. Yoshlar qanchalik chuqur bilim va salohiyatga ega bo'lsa, bu yoshlar voyaga yetib mamlakat taraqqiyotini shu darajada yuqoriga ko'tarishini bugungi kunda butun jahon tan olmoqda. Shu sababli o'quvchilarga chuqur bilim berish hozirgi kunda yurtimizda bosh maqsadga aylandi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, “Matematika barcha aniq fanlarga asos. bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Matematika barcha aniq fanlarning asosi hisoblanadi, bu fanni o'quvchilarimiz yaxshi bilsa, boshqa tabiiy fanlarni ham chuqur o'zlashtira oladi. bugungi o'quvchi-yoshlarimizning matematika va tabiiy fanlarni chuqur egallab, bilimlarini sanoat va texnikada faol qo'llay olishi, mamlakatimiz taraqqiyotiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi.

O'quvchilarga chuqur bilim berish uchun avvalo ularda fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish darkor. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi. O'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni qanday oshirish mumkin?

ko'pchiligimizga sir emaski, boshlang'ich sinflarda sinfdagi deyarli barcha o'quvchilar matematika fanini qiziqib o'qiydilar. 6-7-sinfga borib, sinfdagi o'quvchilarning yarmidan ko'prog'i qiziqib o'qiydi bu fanni, yuqori sinflarga borganda esa yarmidan ko'pi qiziqmay qo'yadi (matematikaga ixtisoslashgan sinf yoki maktablar bundan mustasno). chunki boshlang'ich sinflarda matematika fanining o'quv dasturi oson, o'quvchilar qiynalmay o'zlashtiradi, o'quvchilar tushunishga qiynalgan mavzularga uyda ota-onalari tushuntirib, yordam berishadi. Yuqori sinfga o'tgan sari matematika fanining o'quv dasturi qiynilashib

boradi, o'quvchilar qiynalgan mavzularni uyda ota-onalari ham tushuntirib berishga qiynaladilar. O'quvchilar qaysi fanga yaxshi tushunsa, albatta o'sha fanga qiziqadilar. Yuqori sinfda matematika fanini tushunishga qiynaladi ko'p o'quvchilar, shu sababli qiziqishlari ham pasayib boradi. hammamiz bilamizki, matematika fani zinapoyaga oxshaydi, har bir sinf materialini to'liq o'zlashtirmagan o'quvchi keyingi sinf mavzularini o'zlashtirishga qiynaladi. Shunday ekan, biz har bir sinfda o'quvchilarning fanga qiziqishini va bilimlarini oshirib borishimiz zarur.

Men shu o'rinda bir maqolni eslatmoqchiman: "Matematikani qo'lda qalam bilan o'qi!". Albatta bu naql behuda aytilmagan. boshqa ko'p fanlarni o'qish va yodlash bilan o'rganish mumkin. Lekin matematika fanini misol va masalalarni ishlamay turib o'rganib bo'lmaydi. bu fikrlardan kelib chiqib aytilish mumkinki, matematika fanini o'rganish uchun o'quvchidan irodali va sabrli bo'lish talab etiladi. Matematika fanini chuqur o'zlashtirgan o'quvchi albatta irodali, sabrli bo'lib voyaga yetadi, bunday inson hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga, albatta, erishadi.

Shu o'rinda yana bir narsaga e'tiborni qaratmoqchiman. bugun o'quvchilarga jahon talablari darajasida bilim berish va ularni PISA topshiriqlariga tayyorlash ta'lim tizimidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. PISA topshiriqlariga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ularda o'quvchilarning bilim darajasi emas, balki o'quvchilar olgan bilimlarini hayotga bog'lay olishi va kundalik hayotda qo'llay olish darajasi tekshiriladi. Agar o'quvchilar dars mavzusining tub mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetsalar, shundagina bu mavzuni hayotga bog'lay oladilar. Demak, biz o'quvchilarni PISA topshiriqlariga tayyorlash uchun eng avvalo o'quvchilarning dars mazmunini chuqur anglab yetishlari uchun ko'maklashishimiz zarur.

Yana avvalgi savolga qaytsam, o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini qanday oshirish mumkin? Sir emaski, insonning biror sohada bilimi qancha yuqori bo'lsa, bu insonning shu sohaga qiziqishi shuncha yuqori bo'ladi. demak, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish uchun avvalo ularning bilimini kichik sinflardan oshirib va mustahkamlab borishimiz darkor. kichik sinflardan boshlab o'quvchilarning mavzularni yaxshi o'zlashtirishi va bilimlarini oshirib borish uchun nima qilishimiz kerak? buning uchun biz o'quvchilarni 3-4-sinflardan boshlab, matematika darslarida mustaqil ishlash va ijodiy fikrlashga o'rgatib borishimiz zarur. Matematika fanidan har bir dars o'tilgandan keyin uyga vazifa qilib, o'quvchilar shu o'tilgan mavzu bo'yicha o'zi mustaqil misol yoki masalalar tuzib, ishlab kelish topshirig'ini berishimiz lozim. O'quvchi o'zi misol yoki masala tuzish uchun mavzu bo'yicha o'ylanadi, fikrlaydi, natijada mavzuning tub mazmun-mohiyatini anglab yetadi. Misol tuzadi va ishlaydi, bu jarayonda mavzu mustahkamlanadi. Mavzuni chuqur o'zlashtirgan o'quvchining bilimi albatta oshadi, bilim oshgandan keyin fanga bo'lgan qiziqishi o'z-o'zidan kuchayadi. O'quvchilarni bajargan uy ishlariga (o'zi tuzgan va ishlagan misol yoki masalalarga) qarab, qay darajada bilimga ega bo'lganini bilish va qiynalmay baholash mumkin. demak, biz matematika darslarida o'quvchilarni kichik sinflardan boshlab ijodkorlikka va mustaqil ishlashga o'rgatib borishimiz kerak. Ijodkor va mustaqil fikrlaydigan inson albatta kelajakda katta yutuqlarga erishadi.

Bugun bir narsani yaqqol ko'rishimiz mumkin, o'qimishli, ziyoli oila farzandlari albatta bilimli va tarbiyali bo'lib voyaga yetadi. demak, biz bugun yoshlarimizni bilimli va keng tafakkurli qilib tarbiyalay olsak, ularning farzandlari ham, ya'ni kelajak avlod ham bilimli,

salohiyatli bo'lib o'sadi. bugungi kun yoshlarining kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lishi Vatanimiz taraqqiyotining kelajakda yuksaklarga ko'tarilishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunusova d. Matematika o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. darslik T: fan va tex- nologiya. 2011. -200b
2. Uzliksiz ta'lim. Jurnal 2010-2017 y
3. www.ta'lim.uz